

**BUDJETDA XARAJATLARNI NAZORAT QILISH TARTIBINI
TAKOMILLASHTIRISH**

*Po'latov O'rolbek Baxtiyorovich
Bank-moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi bujdet tashkilotlar xarajatlarini tartibga solish, budjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha budjet tashkilotlari kesimida yo'riqnomalarni shakllantirish, shartnomalar orqali sarflanadigan budjet mablag'lari ustidan va tashkilotlar uchun yillik smeta sarf xarajatlari, shtatlar jadvali bo'yicha ajratilgan mablag'larni sarflanishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish va takliflar ishlab chiqish va shu orqali budjet mablag'larini natog'ri sarflanishini oldini olish borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bujdet tashkilotlar, smeta xarajatlari, budjet nazorati tamoyillari, to'lov jarayonlari.

O'zbekistonda iqtisodiyotni strategik va innovatsion rivojlantirish jarayonlarini amalga oshirish borasida qabul qilinayotgan davlat dasturlarida davlat byudjeti shaffofligini va barcha darajadagi byudjetlar mutanosibligini ta'minlash, byudjet mablag'larini samarali rejalashtirish hamda maqsadli sarflash kabi o'ta muhim vazifalar belgilanmoqda shu bilan bir qatorda sarf xarajatlarni nazorat qilish va takomillashtirish yuzasidan bir qator chora tadbirlar ammalga oshirilmoqda.¹

Budjet ijrosi jarayonida Davlat budjeti mablag'lari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari shakillanishi hamda sarflanishini uzlusiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat" deydi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida.²

Budjetdagagi xarajatlar tahlil qilingani bilan, har bir tomonidan qaysi sohalar uchun nima sarfl qilingani bilan tanishish va bu, sodda bo'lishiga qaramay, to'g'ri yo'l bo'lib budjetni tahlil etishga yordam beradi. Xarajatlarni nazorat qilishning asosiy bosqichi shundaki, to'lov jarayonlarini monitoring qilib borishidir. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining

¹ D. Sholdarob va M. Xamrayeva "Byudjet tashkilotlarida smeta tuzishning nazariy-uslubiy asoslari" maqolasi, 2023.

² A. Isoqov "Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha moliyaviy aktivlar nazoratining asosiy yo'nalishlari" maqolasi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

joriy qilinishi, budgetining g`azna ijrosiga o'tilishi, o'rtal muddatli budget istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budget siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budget tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budgetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar yurtimizni dunyoga Yangi O'zbekiston sifatida tanitib bormoqda. Har bir sohada bugungi globallashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda. So'nggi yillarda budget tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish mexanizmini tubdan o'zgartirish, davlat sektorlarini budgetdan moliyalashtirishni qisqartirish uchun samarali chora – tadbirlar ko'rilmoxda. Bu borada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Budget tashkilotlari budget mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish va nazorat qilishni takomillashtirish yuzasidan 2022-yil 1-yanvardan boshlab "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va turlariga qo'shimcha quyidagilar amaliyotga joriy etiladi:

- buxgalteriya (budget) hisobi yuritilishini, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini, moliyaviy resurslardan maqsadli va qonuniy foydalanilganligini hamda daromadlarning to'liqligini, shuningdek, moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini baholashni nazarda tutuvchi moliyaviy audit;

- konsolidatsiyalashgan va jalb qilingan budget mablag'laridan foydalanishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda, shuningdek, daromadlarning to'liqligini ta'minlash va biznes jarayonlarida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinganligini va ularning davlat dasturlariga muvofiqligini tekshirish va baholashni nazarda tutuvchi muvofiqlik audit;

- nazorat obyektida xarajatlar, subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligi va natijadorligini, ajratilgan mablag'lardan foydalanishning tejamkorligini, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini, konsolidatsiyalashgan budget va jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning maqsadga muvofiqligi va natijadorligini, shuningdek, davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini baholash va tahlil qilishni nazarda tutuvchi samaradorlik auditni va bilan bir qatorda bir nechta chora tadbirlar belgilangan.³

Yuqorida keltirib o'tilgan takliflar va budget mablag'larini xarajatlarini nazorat qilishga doir bir necha qonunlar qabul qilinmoqda bu esa o'z navbatida mablag' to'g'ri sarflanishi samarasini beradi.

Budgetdagi xarajatlarni nazorat qilish tartibini takomillashtirish uchun bir nechta qadamlar mavjud:

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6300-son Farmoni.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

1. **Xarajatlar bilan tanishib chiqish:** Boshlang'ich qadam, budgetdagi xarajatlar to'g'risida to'liq ma'lumot olishdir. Bu, xarajatlar turlarini, qaysi sohalar uchun xarajatlar qilinishi kerakligini va qaysi ommaviy xizmatlarni ta'minlash uchun barcha muammolarini aniqlashga yordam beradi.

2. **Nazorat bo'yicha qo'llanma yaratish:** Bu qo'llanma, qanday narsalarni nazorat qilish kerakligini, kimlar uchun ma'suliyatlar mavjudligini va qanday hisob-kitoblarni o'tkazishni aniqlashda yordam beradi.

3. **Nazorat tizimini tashkil etish:** Nazorat komitetingizni yoki guruhingizni tuzish zarur. Bu komitet budgetni o'rganish, nazorat qilish, maqsadlar va muddatlarni belgilash uchun javobgar bo'ladi.

4. **Ommaviy hisobotlar:** Xarajatlar va mijozlar uchun ko'rsatmalar yaratish, budgetning ommaviy hisobotlarini taqdim etish va xarajatlar bilan ta'minlash jarayonini nazorat qilishda yordam beradi.

5. **Monitoring va baholash:** Xarajatlarni amalga oshirish jarayonida monitoring olib borish. Bu, xarajatlarning to'g'ri amalga oshirilishini va maqsadlarga mos keluvchi natijalarni ta'minlash uchun zarur bo'ladi.

6. **Qarorlar olish:** Nazorat jarayonida yuzaga kelgan muammolar va tushunchalar bo'yicha qarorlar olish. Bu, xarajatlar ustida qanday ishlarni olib borish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

7. **Keyingi yil uchun tajribalarni o'rganish:** Xarajatlar va budgetni nazorat qilish jarayonida olingan tajribalardan foydalanish va keyingi yil uchun nazorat tartibini yangilash uchun takliflar kiritish. Bu, jarayonni yanada takomillashtirish uchun muhimdir.

Bu qadamlar budgetdagi xarajatlar bilan nazoratni takomillashtirishga yordam beradi va maslahat beradi. O'zaro hamkorlikda ishslash va nazorat komitetining qanday tashkil etilishi kerakligi muhimdir.

Xulosa.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida davlat budget siyosatida olib borilayotgan islohotlar budget tashkilotlarida amalga oshirilayotgan nazorat tadbirilarini yanada takomillashtirish, budget ijrosi nazoratini tubdan isloh qilish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada qabul qilinayotgan me`yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Davlat budgetining uzluksiz barqarorligiga erishish, eng avvalo davlat budgeti daromadlari barqarorligini ta'minlash, shuningdek davlat budgeti xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liqdir. Davlat budgeti daromadlari doimiyligini ta'minlash va ularning budgetga tushishi ustidan samarali moliyaviy nazorat o'rnatish, budget intizomiga to'liq rioya etish o'z navbatida budget barqarorligini ta'minlashga sharoit yaratadi.

Budgetda xarajatlarni nazorat qilish tartibini takomillashtirish juda muhimdir, chunki bu, moliyaviy istiqomatlilikni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kritik bo'ladi. Bundan tashqari, budgetdagi xarajatlar bilan nazorat qilish,

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qonuniy talablar va boshqa tartibotlar bilan mos keladigan o'zaro ishslash va qo'llanish jarayonini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Umumiy xulosa quyidagicha bo'ladi:

1. **Transparensiya va shaffoflik:** Budjetda xarajatlar bilan nazorat qilishda muhim tushuncha, transparensiya va shaffoflikdir. Budjetda qanday xarajatlar qilinayotganligi, qaysi sohalar uchun xarajatlar ajratilganligi va boshqa moliyaviy ma'lumotlar ochiq ko'rinishda bo'lishi kerak. Bu, muassasalar, ommaviy tashkilotlar va fuqarolar uchun foydali ma'lumotlar taqdim etadi.

2. **Nazorat tizimini mustahkamlash:** Budjetda xarajatlarni nazorat qilish jarayonida mustahkam va ishlov beruvchi bir nazorat tizimining mavjudligi juda muhimdir. Bu tizim xarajatlar bilan tanishib chiqish, hisob-kitob olish, monitoring va baholashni o'z ichiga oladi.

3. **Ommaviy hisobotlar:** Budjetda xarajatlarni nazorat qilishda ommaviy hisobotlar kiritish juda muhimdir. Bu hisobotlar budjetdagi xarajatlar haqida ommaviyroq ma'lumot taqdim etadi va ijtimoiy transparensiyani ta'minlaydi.

4. **Yaxshi ko'rsatkichlar va qarorlar:** Xarajatlar bilan nazorat qilish jarayonida yaxshi ko'rsatkichlar va qarorlar olish muhimdir. Bu, budjetda har qanday to'g'ri to'lov va samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi.

5. **Yopiq hisobot va hisobot berish:** Xarajatlarni nazorat qilish jarayonida yopiq hisobotlar va hisobot berish qiyin qo'llanish prinsiplari bilan uygun keladi. Bu, qonuniy talablar va ommaviy transparensiya talablari bilan mos keladi.

Budjetda xarajatlarni nazorat qilish tartibini takomillashtirish, moliyaviy istiqomatlilikni ta'minlash va ijtimoiy maslahatlarni bartaraf etishga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yil 14-fevral, PQ-128-sون Toshkent sh.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2021-yil 27-avgust, PF-6300-сон Toshkent sh.,
3. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 2024-2026 y budgetnoma 2023 y.
4. Alimjonov Sh.U "Respublika budjeti daromadlari g'azna ijrosi hisobi va nazoratini takomillashtirish" "formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences" 2022
5. Ataniyazov J. X "Budget tizimining turli darajalari o'rtasida daromadlar taqsimlanishining xususiyatlari" scholar 2023
6. D. Sholdarov "Budget tashkilotlarida smeta tuzishning nazariy-uslubiy asoslari" O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 19-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 2023
7. Qarajanova G.T "Davlat budjeti: Tushuncha, tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari" International Interdisciplinary Scientific Conference "Digitalisation and Sustainability for Scientific Deployment: Economic, Social, and Medical Aspects" 2022
8. Mehamonov S.U, Ubaydullayev D.Y. "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" - Toshkent: «Sano-standart» nashriyoti, 2013 .

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

9. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантириши тақомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
11. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Erubayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
13. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
14. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISABI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
15. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE . World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
16. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
17. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
18. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
19. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни тақомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиқка тортиш механизмини тақомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
20. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ . World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>
21. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

22. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Кличев-Б.pdf>
23. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
24. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Мехнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
25. Қличев Баҳтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>

